

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK KODEKSI YANGI TAHRIRI
LOYIHASIDA "TASVIRGA BO'LGAN HUQUQ"GA OID YANGILIKNING
TARIXIY-NAZARIY TAHLILI**

Koryog'diyev Bobur Umidjon o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik huquqi kafedrasи o'qituvchisi,

e-mail: boburkoryogdiev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Fuqaro tasvirining himoyasi bugungi axborot kommunikatsiya rivojlangan davrda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, fuqaro tasvirini olish va uni tarqatish vositalarining turi juda keng va tasvirdan turli g'arazli va noqonuniy maqsadlarda ham foydalanish mumkin. Bu esa fuqaroning shaxsiy nomulkiy huquqlari obyektlaridan biri sanaladigan tasvirga bo'lgan huquq buzilishiga olib keladi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi yangi Fuqarolik kodeksi loyihasiga kiritilayotgan o'zgartirishlardan biri fuqaroning tasviriga bo'lgan huquqi bilan bog`liq yangilikning tarixiy-nazariy aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik huquqi, nomoddiy obyektlar, shaxs daxlsizligi, tasvirga bo'lgan huquq.

**HISTORICAL AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE NEWS
REGARDING "THE RIGHT TO IMAGE" IN THE PROJECT OF THE NEW
EDITION OF THE CIVIL CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Koryogdiev Bobur Umidjon ugli,

The lecturer of Civil Law Department of

Tashkent State University of Law, Uzbekistan

e-mail: boburkoryogdiev@gmail.com

ABSTRACT

Protection of citizen's image is of urgent importance in today's era of advanced information communication. Because the types of means of obtaining and distributing the image of a citizen are very wide, and the image can be used for various malicious and illegal purposes. This leads to the violation of the right to the image, which is considered one of the objects of personal property rights of the citizen. In this article, one of the amendments to the draft of the new Civil Code of the Republic of Uzbekistan is a historical-theoretical reflection of the innovation related to the citizen's right to the image.

Key words: Civil rights, intangible objects, privacy, right to image.

O‘zining rang barangligi, qonunchilik tarkibining kengligi va bir muncha murakkabligi hamda yuridik fanlar doktori, professor N.Imomov tabiri bilan aytganda normalarining “egiluvchanligi”, huquqiy munosabat ishtirokchilarining erk muxtoriyatiga keng yo‘l berilganligi hamda davlat aralashuvining maksimal darajada kamligi¹ kabi jihatlar bilan Fuqarolik qonunchiligi O‘zbekiston qonunchilik tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqning alohida sohalaridan biri sifatida fuqarolik huquqi va unga doir qonunchilik o‘zining qonunchilik tizimida xosligini ifodalovchi asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan ishtirokchilarining huquqiy munosabatda erkinligi va davlat aralashuvining imkon qadar cheklanganligi sababli fuqarolik jamiyatlari yuridik jihatdan teng bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar (mulkiy, shaxsiy nomulkiy va tashkiliy-huquqiy (korporativ)munosabatlar)ni tartibga soluvchi qoidalarni imkon qadar mustaqil, ommaviy huquq subyektlarini aralashtirmagan holda tartiblashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishning doimiy jarayonida bo‘lishadi. Mustaqil O‘zbekiston davlati ham fuqarolik jamiyatini qurish maqsadidagi Respublika sifatida o‘zining fuqarolik qonunchiliginin takomillashtirishni izchil amalga oshirib kelmoqda.

¹ ИМОМОВ, Н. (2018). THE TASKS OF THE CIVIL CODE: REGULATION OF SOCIAL RELATIONS OR DETERMINATION OF RIGHTS. *Юридик фанлар аҳборотномаси*, (1), 43-49.

Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish zarurati yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan davomli, izchil va barqaror islohotlar silsasida o‘z o‘rniga ega. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son farmoyishi bilan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiysi² (keyingi o‘rinlarda Konsepsiya) tasdiqlanib, unda asosiy vazifalardan biri sifatida “fuqarolik qonunchiligini inventarizatsiya qilish va shu asosda rivojlangan xorijiy huquqiy tartibotlar asosida takomillashtirish” belgilangan. Ushbu konsepsiya asosida Fuqarolik kodeksining yangi loyihasi ishlab chiqilib, undagi yangiliklardan biri fuqarolik huquqi obyekti sifatida shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlarni tartiblashga alohida urg‘u berilishidir. Amaldagi kodeksda shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar orasida shaxsning tasviriga bo‘lgan huquqi shani-qadr qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘sni, shaxsiy hayotining daxlsizligi kabi konstitutsiyaviy huquqlar qatorida himoya ostiga olingan edi. Endilikda esa loyihada, “Fuqaroning tasviri himoyasi” nomi bilan alohida norma legallashtirilib, unda fuqaroning tasviri deganda nima tushunilishi kerakligi, uning himoyaviy holatlari va aksincha, qaysi hollarda himoya obyekti bo‘la olmasligi, tasvirdan foydalanish tushunchasi kabilar aniqlashtirilgan.

“Tasvir” atamasiga ko‘plab mamlakatlar qonunchiligi aniq ta’rif bermagan. Buning sababini esa ushbu tushuncha bugungi kun texnologiyasining rivojlanishi oqibatida o‘zining ma’nosini ya’nada kengaytirishi bilan izohlash mumkin. Masalan, yaqin ittifoqchimiz Rossiya Federatsiyasining qonunchiligidagi "tasvir" atamasi deganda aniq nima tushunilishi kerakligi haqidagi ta’rifi mavjud emas. Rus lug`atshunos olimasi S.I. Ozhegova tasvirni biror narsaning vizual takrorlanishi sifatida belgilaydi³. T.F. Efrayimning izohli lug‘atiga ko‘ra tasvir so‘zining bir nechta ma’nosi mavjud⁴:

“Tasvir” fuqaroni identifikatsiya qiluvchi obyekti sifatida “aniqlash uchun yetarli bo‘lgan har qanday tasvir”, ya’ni tashqi ko‘rinishni anglatadi. Fuqaroning tashqi

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 апрелдаги Ф-5464-сон фармойиши // <https://lex.uz/docs/4272621>

³ Гришаев С.П. Право гражданина на изображение // Гражданин и право. 2012. N 9.

⁴ Акинышина Е.А. «Право гражданина на изображение». ЮУрГУ, ИО - 476, 58 с., библиограф. список -51 наимен.

ko‘rinishi o‘ta keng va sig`imli tushuncha bo‘lib, ma’lum bir shaxsning tashqi ko‘rinishi, shuningdek, nutq uslubi, xulq-atvori, ovozi, imo-ishoralari, soch turmagi, kiyim-kechak va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Tashqi ko‘rinish, albatta, tug`ilishdan boshlab fuqaroga tegishli bo‘lgan nomoddiy ne’mat hisoblanadi, u ajralmas va undan begonalashtirilmaydi. Fuqaroning o‘z xohishiga ko‘ra tashqi qiyofasini shakllantirish, uni o‘zgartirish yoki saqlash, fuqaro o‘z tashqi qiyofasini ko‘rish imkoniyatini beradigan shaxslar doirasini yaratish, tashqi qiyofasini belgilash yoki belgilashga imkon berish qobiliyati. muayyan vaqt, video tasvirga olish, suratga olish va hokazolar orqali - ushbu qonuniy imtiyozning mazmuniga kiritilgan.

Tashqi ko‘rinish fuqaroning jamiyatdagi individuallashtiruvchi tarkibiy qismidir, shuning uchun fuqaroning qiyofasini yoki uning tashqi ko‘rinishini tavsiflash uning shaxsiyati haqidagi ma’lumotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Fuqaroning tashqi ko‘rinishiga bo‘lgan huquq ham juda kengdir, chunki u fundamental-konstitutsiyaviy huquq hisoblanib, u: qadr-qimmati, sha’ni, ishchanlik obro‘sni, fuqaroning nomi, shaxsiy daxlsizlik kabi huquqlar bilan bir qatorda ko‘rib chiqiladi. Barcha shaxsiy nomoddiy ne’matlar konstitutsiyaviy huquqning obyektlari hisoblanadi. Biroq, ko‘rsatilgan nomoddiy ne’matlarga bo‘lgan huquqlar buzilgan taqdirda, himoya qilishni tartibga solish, agar ularning mohiyatidan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, fuqarolik qonunchiligi bilan amalga oshiriladi.

Insonlar o‘zlarini va ularning turlarini juda yaqin o‘xshashlik bilan tasvirlashni o‘rgangan paytdan boshlab, tasvirlangan shaxsning o‘z qiyofasiga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish muammosi paydo bo‘ldi.

Biroq, ijtimoiy munosabatlar va huquq taraqqiyotining ma’lum bir bosqichiga qadar bu muammo qonuniy hal qilishni talab qilmagan. Yuzaga kelgan kelishmovchiliklar axloqiy me’yorlar yordamida yoki mavjud urf-odatlar asosida hal qilindi. Bu, xususan, tasvirga bo‘lgan huquqning huquqiy tartibga solinishi to‘g‘risida na Rim huquqi normalarida, na o‘rta asrlar qonunlarida, na birlamchi tarixiy- huquqiy hujjatlarda hech qanday eslatma uchratmasligimizdan dalolat beradi.

Shaxsning o‘z imidji bilan bog‘liq huquqlarini, shuningdek, fuqaroning imidjidan foydalanishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi maxsus qoidalarni qabul qilish zarurati tasvirni yaratish optimallashtirilgandan keyin, ya’ni texnik vositalarning rivojlanishi tufayli mavjud tasvirlarning nusxalarini tezda yaratish, tasvirlarni qayta ishlash, telekomunikatsiya orqali tasvirlarni uzatish va tasvirlar bilan boshqa harakatlarni amalga oshirish mumkin bo‘lib qolishi, qolaversa, shaxs tasvirlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish tendensiyalari (tomosha va ko‘ngilochar sanoatda, savdo, reklama va boshqalarda) vujudga kelgan vaqtdan boshlab paydo bo‘ldi.

Tasvirga bo‘lgan huquqni himoya qilish zaruratini nazariy asoslashga birinchi urinishlar hatto rivojlangan Yevropa davlatlarida ham 19-asr oxiri - 20-asr boshlarida, fotografiya ixtiro qilingan paytda paydo bo‘lganligi ajablanarli emas. Rossiyada taniqli rus huquqshunosi professor I.A. Pokrovskiy tasvirga bo‘lgan huquqni inson hayotining intim jabhalari bilan bog‘lagan, uning fikricha ularga begonalarning kirib kelishidan himoyalangan bo‘lishi kerak edi.

U o‘zining fikrini isboti sifatida bir qator xayoliy misollar ham keltirgan: “Ba’zi holatlarda sizning tasviringizdan ruxsatsiz foydalanish bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: masalan, do‘konning peshlavha oynasida bir qator, jamiyatda salbiy illatlar bilan tanilgan ayollar orasida sizning ham suratingiz turishi. Xuddi shunga o‘xhash oqibatlar, kimdir sizning ruxsatingizsiz offisingizni yoki uyingiz tasvirini ommaga oshkor qilishi, yoki rol ijro etayotgan aktyor sizning soch turmagingiz yo bo‘lmasa yuz imidjingiz bilan rol o‘ynashi, yana bir misol, yozuvchining, garchi sizni aniq aytmagan bo‘lsa ham, boshqalar tanib oladigan darajada shaxsiy hayotingizni o‘z asarida muhrlashi”.

Shu bilan birga, I.A. Pokrovskiyning ta’kidlashicha, tasvirga bo‘lgan huquqqa nisbatan, hatto nomukammal himoya ham insonlarning nomoddiy manfaatlarini hurmat qilish zarurligini eslatadi; Shuning uchun hatto bunday mudofaa ham juda katta tarbiyaviy va profilaktik ahamiyatga ega bo‘ladi⁵.

⁵ Покровский И.А. Основные проблемы гражданского права. Пр. 1917. - С. 183.

Yana bir tarixiy shaxslardan biri, taniqli rus huquqshunosi A.V.Zavadskiy, tasvirga egalik qilishni shaxsning suratlarini uning roziligesiz takrorlamaslik va tarqatmaslikdir deb izohlagan. Uning fikricha "bu harakatlarning barchasi faqat ushbu shaxsga, uning monopoliyasi sifatida taqdim etiladi. Ma'lumki, o'zining qonuniy tuzilishiga ko'ra tasvirga egalik qilish huquqi mualliflik huquqi kabi eksklyuziv huquqlardan biri bo'ladi. A.V. Zavadskiy bunga qiziq misollar keltiradi. Masalan, advokatlar Bismarkning jasadi fotosuratlarining shov-shuvli ishi bo'yicha sud qarorini keskin tanqid qilishgan (sababi o'sha davrda tasvirga bo'lgan huquq buzilishiga doir ishlar sudlar tomonidan ko'riliishi noyob bo'lgan). Ikki fotosuratchi kechasi Bismarkning jasadi yotgan xonaga deraza orqali kirib, bir qancha fotosuratlarni oldi va sotuvga qo'ydi. Bismarkning o'g'llari fotosuratlarni yo'q qilish talabi bilan sudga murojaat qilgan, sud fotosuratchilarni "xonadon tinchligini buzish" jinoyatini sodir etganligini ta'kidlab, ishni ularning foydasiga hal qildi va jinoiy yo'l bilan olingan fotosuratlar yo'q qilish haqida hal qiluv qarori chiqardi"⁶.

Garchi yuqoridagi sud ishida tasvirga bo'lgan huquq alohida huquq sifatida tan olinmagan bo'lsa ham, Rossiya konsepsiyaning yaratilishiga muhim amaliyot bo'lgan.

Xuddi o'sha davrda boshqa bir sud ishida tasvirga bo'lgan huquq sud tomonidan mustaqil huquq sifatida tasdiqlangan. O'sha paytdagi Belgiya sud amaliyotida imidjga egalik huquqi to'g'ridan-to'g'ri taniqli Pelzer jarayonida tan olingan. Aka-uka Pelzerlar Bryusselda advokatni o'ldirishda ayblangan va taniqli panopticon Castana ikkala aka-ukaning mumdan yasalgan tashqi ko'rinishlarini muzeyda ommaga namoyish qilgan. Belgiya sudi qarindoshlarining iltimosiga ko'ra, hech kim shaxs tasvirining asl nusxasini (va u vafot etgan taqdirda, uning yaqin qarindoshlari) o'zining ruxsatisiz omma oldida ko'rsatishi yoki tarqatishi mumkin emasligini tan olib, muzeydan olib tashlashni buyurdi.

O'zbekiston Respublikasida ham tasvirga bo'lgan huquq, garchi alohida norma bilan tartibga solinmagan bo'lsa ham amaldagi Fuqarolik kodeksining 99-moddasiga

⁶ Завадский О.В. О праве на собственное изображение. Казань. 1909. - С. 8.

ko‘ra shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar tarkibida sanalgan. Loyihada esa ushbu normaga ham qo‘sishimchalar kiritilib, nisbatan to‘ldirilgan. Kiritilayotgan qo‘sishimchalar esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasining I bo‘lim 5-bandida fuqarolik-huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga to‘sinqilik qiluvchi fuqarolik qonunchiligidagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish nazarda tutilgani bilan bog‘liq.

Loyihaning 178-modda esa Fuqaro tasvirining himoyasi himoyasiga bag`ishlanib, unga ko‘ra fuqaroning tasviri – bu video, haykaltaroshlik, rasm yoki boshqa bir tashuvchi vositalar orqali aks ettirilgan ma’lum bir jismoniy shaxsning taniluvchi tashqi qiyofasi ekanligi belgilandi.

Ushbu normaning ikkinchi qismiga ko‘ra fuqaroni tasvirga (shu jumladan, foto tasvirini, uning tasviri aks etgan video tasvir yoki tasviriy san’at asarini yaratish) tushirish, shuningdek uning tasviridan foydalanish uchun ushbu fuqaroning roziligi, agar fuqaro voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa, uning qonuniy vakillari roziligi talab etiladi. Istisno holatlar sifatida esa quyidagilar sanaldi:

a) tasvirdan quyidagi davlat yoki jamiyat manfaatlari uchun foydalanilganda:

tasvirdan huquqbuzarlikka qarshi kurashish maqsadida, davlat va (yoki) jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi voqea-hodisalar haqida xabar berishda;

tasvirdagi shaxsning jinoyat sodir etganligi yoki bedarak yo‘qolganligi sababli qidiruv e’lon qilishda;

davlat xizmatchilarining xizmat vazifalarini bajarishi jarayonidagi tasviridan foydalanishda;

b) fuqaro ommaviy tadbirdarda (konsert, bayram sayillari va boshqa) va jamoat joylarida (umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish ob’ektlari, ta’lim muassasalari, hayvonot bog‘i, istirohat bog‘lari, ko‘chalar va boshqa) tasvirlangan hamda tasvirdan foydalanishdan maqsad faqat ushbu joylardagi umumiy jarayonlarni namoyish etish bo‘lsa;

v) davlat va jamoat arboblari hamda ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalar taniqli vakillarining tasviridan jamiyat uchun katta qiziqish uyg‘otadigan axborotni tarqatish maqsadlarida foydalanilganda;

g) fuqaroni tasvirga tushirish va (yoki) uning tasviridan foydalanishdan maqsad ushbu fuqaroning huquqlarini himoya qilish bo‘lsa;

d) fuqaroning haq evaziga tushirilgan tasviridan ushbu tasvirni tushirishdan ko‘zlangan maqsadlarda foydalanilganda.

Mazkur normada, shuningdek Fuqaroning tasviridan foydalanish deganda uni tarqatish, qayta ishlash va namoyish etish tushunilishi kerakligi, agar vafot etgan fuqaroning farzandlari, eri (xotini) yoki ota-onasi bo‘lsa, ularning roziligidisiz ushbu fuqaroning tasviridan foydalanilishiga yo‘l qo‘yilmasligi ham ta’kidlangan.

Fuqaroni tasvirga tushirish va (yoki) uning tasviridan foydalanishga rozilik yozma yoki og‘zaki shaklda yohud boshqa rozilikni yaqqol ko‘rsatuvchi harakatlar orqali bildiriladi.

Fuqaroni tasvirga tushirishga va (yoki) uning tasviridan foydalanishga berilgan rozilik ushbu rozilikni olgan shaxsdan boshqa shaxslarga ushbu tasvirdan foydalanish huquqini bermaydi.

Fuqaroning ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan talablarga rioya qilinmasdan tushirilgan va (yoki) foydalanilgan tasviri saqlanayotgan manbadan (fotoapparat, kamera, mobil telefon va boshqa uskunalar xotirasidan) o‘chirib tashlanishi, fuqaroning tasviri aks ettirilgan moddiy ne’matlarning yo‘q qilinishi va muomaladan chiqarilishi, shuningdek, har qanday bosma va elektron ommaviy axborot vositalaridan, Internet tarmog‘idan hamda tashqi reklama va reklama xususiyatiga ega bo‘lgan tarqatma materiallardan olib tashlanishi lozim.

Agar fuqaroni tasvirga tushirgan va (yoki) uning tasviridan foydalangan shaxs(lar) tomonidan ushbu moddaning oltinchi qismi talablari ixtiyoriy ravishda bajarilmaganda fuqaro (vafot etgan bo‘lsa – uning farzandlari, eri (xotini) yoki ota-onasi, voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa – qonuniy vakillari) bunday talab bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Ushbu modda talablariga rioya etilmasligi oqibatida fuqaroga va ushbu fuqaroni tasvirga tushirgan va (yoki) uning tasviridan foydalanuvchi shaxsga yetkazilgan zararlar va ma'naviy ziyonni undirish sud tartibida hal qilinadi.

Mazkur moddaning qoidalarini shakllantirishda Xitoy Fuqarolik kodeksi 1018-moddasi asos qilib olingen hamda norma qoidalari Konsepsiyasining IV bo'limi 5-bandida nazarda tutilgan vazifani bajarish, ya'ni shaxslar tasviri, ularning shaxsiy nomulkiy huquqlari va boshqa nomoddiy manfaatlarining ishonchli fuqarolik-huquqiy himoya qilinishini ta'minlash maqsadida taklif etilgan.

Xorijiy tajribadan misol keltiradigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 145-moddasi, Fransiya Respublikasi Fuqarolik kodeksining 9-moddasi, AQSH Adliya departamentining Maxfiylik va fuqarolik erkinliklari boshqarmasi (OPCL) tomonidan tayyorlangan "1974 yildagi Maxfiylik to'g'risida"gi qonuni va bir qator sud ishlarida, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi 152.1-moddasida tasvirga bo'lgan huquq fuqarolik huquqining nomoddiy obyekti sifatida himoyalabgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, fuqaro tasvirining himoyasi bugungi axborot kommunikatsiya rivojlangan davrda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, fuqaro tasvirini olish va uni tarqatish vositalarining turi juda keng va tasvirdan turli g'arazli va noqonuniy maqsadlarda ham foydalanish mumkin. Bu esa fuqaroning shaxsiy nomulkiy huquqlari obyektlaridan biri sanaladigan tasvirga bo'lgan huquq buzilishiga olib keladi. Shu sababli ham kutilayotgan loyidagi bu kabi o'zgarish Respublika fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun muhim, amalda ko'p qo'llaniladigan normaga aylana oladi.

REFERENCES:

1. Имомов, Н. (2018). The tasks of the Civil Code: Regulation of Social Relations or Determination Of Rights. Юридик Фанлар Аҳборонномаси, (1), 43-49.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 апрелдаги Ф-5464-сон фармойиши // <https://lex.uz/docs/4272621>

3. Гришаев С.П. Право гражданина на изображение // Гражданин и право. 2012. № 9.
4. Акиньшина Е.А. «Право гражданина на изображение». ЮУрГУ, Ю - 476, 58 с., библиограф. список -51 наимен.
5. Покровский И.А. Основные проблемы гражданского права. Пр. 1917. - С. 183.
6. Завадский О.В. О праве на собственное изображение. Казань. 1909. - С. 8.
7. Гаврилов Э. Защита внешнего облика и охрана изображения гражданина // Хозяйство и право. 2015. - № 10. С. 13-25.
8. Bruguière J.-M. L'exploitation de l'image des biens // LEGICOM, 2005/2 (N° 34), S. 13-31. URL: <https://www.cairn.info/revue-legicom-2005-2-page-13.htm>